

JAMIYATDA HUQUQIY ONGNI TAKOMILLASHUVIDA OILANING ROLI

Muqaddasxon Sodiqova ¹

¹ Andijon davlat pedagogika instituti

Milliy g'oya va huquq yonalishi 4-kurs talabasi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 23.01.2025

Revised: 24.01.2025

Accepted: 25.01.2025

KALIT SO'ZLAR:

*oila, shaxs, huquqiy
ong, madaniyat, tarbiya,
mafkura*

*Ushbu maqolada jamiyatda huquqiy madaniyatni
yuksaltirish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.
Huquqiy ongni takomillashtirishning jamiyatda
oilaning ahamiyati va oila tarbiyasi haqida fikr-
mulohazalar bildirilgan. Jamiyatda inson
huquqlarini himoya qilish va huquqiy tartibni
saqlash va bunda oilaning roli kabi mazmundagi
fikrlar qayd etilgan*

KIRISH. Prezidentning 2019 yil 9 yanvardagi PF5618 -son Farmoniga muvofiq "Yuksak huquqiy madaniyat - mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan konseptual g'oya asosida tizimli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qilishni nazarda tutuvchi Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonligini oshirish, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari davlat organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. U "shaxs - oila - mahalla - ta'lim muassasasi - tashkilot - jamiyat" prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etiladi.

2022-2023 yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi quyidagilarni nazarda tutadi:

- oilada va ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyani shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar:

- notinchlik va zo‘ravonlikning bolalar tarbiyasidagi salbiy oqibatlari haqida ma’lumot yetkazish va ularning oldini olish;

- oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish o‘quv markazlarida inson huquqlari, ayollar huquqlari, bola huquqlari o‘quv kurslarini tashkil etish;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga imtiyozlar va moddiy yordam berish masalalari bo‘yicha axborot-targ‘ibot ishlari va boshqalar;

• davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar:

- “Huquqiy savodxonlik oyligi”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” va “Konstitutsiyaviy huquq oyligi”ni o‘tkazish;

- huquqiy savodxonlikka oid minimal talablar bo‘yicha o‘qitish va ularning huquqiy bilimlarini baholash va boshqalar;

• aholi barcha qatlamlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar:

- “bepul huquqiy maslahat bilan har bir uyga” loyihasi;

- nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun xayriya aksiyalari;

- murojaatlarni tahlil qilish va tahlil natijasiga ko‘ra manzilli huquqiy targ‘ibot va boshqalar;

• jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquqiy targ‘ibotning innovatsion usullarini joriy qilish, shuningdek, OAVning rolini kuchaytirish:

- videoroliklar tasvirga olish hamda OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqatish;

- aholi va tadbirkorlik sub’yektlariga huquqiy masalalar bo‘yicha yechimlarni beruvchi portallarni huquqiy mavzudagi materiallar bilan boyitish;

- “Huquqiy axborot” telegram kanali qamrovini kengaytirish va boshqalar;

yuridik ta’limni, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish (yuridik oliy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlariga “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlar bilan ishlash” mavzusini kiritish; yuridik sohada ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirib kelayotgan tadqiqotchilar uchun onlayn xizmatlarni ko‘rsatish imkonini beruvchi elektron platforma yaratish).

Huquqiy ongni takomillashtirishning jamiyatda oilaning ahamiyati juda katta. Oilalar, insonlarning bir-biriga hurmat va muhabbat ko'rsatishining asosiy o'rinlaridan biridir. Oilaning vazifalari o'rtasida farzandlarni huquqiy tarbiyalash, ularning huquqlarini himoya qilish, ularga huquqiy ma'rifat berish kabi muhim vazifalar kiritiladi. Oilalar, farzandlarga huquqiy ma'lumotlarni o'rgatish, ularning huquqlarini tushuntirish va himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Huquqiy bilimlarni oila a'zolari o'rtasida almashish, o'quvchilarni huquqiy masalalarda mahalliy qonunlar va kelajakda ularning jamiyati bilan murojaat qilishlari uchun tayyorlash hamda huquqiy tartibni hurmat va adolat asosida o'rgatish muhimdir. Oilaning huquqiy ongini takomillashtirish jamiyatda inson huquqlarini himoya qilish va huquqiy tartibni saqlashda muhimdir. Oilalar farzandlarga huquqiy masalalarda yordam bera oladilar va ularni huquqiy tarbiyalash orqali huquqiy bilimga ega bo'lishlarini ta'minlaydilar. Bundan tashqari, oilalar jamiyatning eng katta tarkibiy birliklaridan biri sifatida huquqiy tartibni saqlashda ham muhim rol o'ynaydi. Huquqiy ongni takomillashtirishning asosiy qismi oila tarbiyasiga asoslangan bo'lishi sababli, oilaning bu sohadagi vazifalarini bajarishi jamiyatning huquqiy ongini mustahkamlashtirishda katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun keng ko'lamli demokratik islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu esa, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Jamiyatda kishilar qanchalik yuqori huquqiy madaniyatli bo'lsa, huquq normalarini bilsa, qonunlarni, yuridik adabiyotlarni o'qib ularga amal qilsa huquq buzulishi ham shunchalik kam bo'ladi. Aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishi, mustahkam irodali, o'z huquqini biladigan va qonunlarni hurmat qiladigan, huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan va huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo'ladigan fuqarolarni tarbiyalashning keng qamrovli muntazam tizimi yaratilmoqda. Tarbiya avvalo, oila ostonasidan boshlanadi, shunday ekan har-bir ota-onaga katta mas'uliyat yuklatilgan. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", - degan naql bekorga aytilmagan. Oila a'zolari kundalik hayotida qonunlarga, belgilangan normalarga qanday amal qilsa, yosh avlod shunday holatni ko'rib va unga moslashib boradi. Kundalik siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotda bo'ladigan yangiliklarni ko'rib borish, saylovlarga to'liq tarzda qatnashish, mahalla yig'inlarida doimiy ishtirok etish shular jumlasidandir. Davlat va jamiyatning huquqiy rivojlanganligini belgilaydigan bir qator muhim omillar bor, biz buning bir necha jihatlari sanab o'tamiz:

Birinchidan, rivojlangan jamiyat a'zolarining, davlat fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy faolligi yuksak bo'lishi kerak;

Ikkinchidan, huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonlik darajasi baland bo'lishi lozim;

Uchinchidan, ularning o'sha jamiyatdagi islohotlarga nisbatan daxldorlik tuyg'usi bor bo'lishligi talab etiladi.

To'g'risini aytganda, huquqiy ong, huquqiy madaniyat haqida gap ketganda ko'pchiligimizda faqat qonunlarni bilish yoki ulardan boxabarlik darajasi tushuniladi. Aslida bu juda keng tushuncha bo'lib, yuqorida sanab o'tganimiz davlat va jamiyatning rivojlanganligini belgilaydigan uchta muhim omilni ham o'z ichiga oladi. Huquqiy madaniyati yuksak inson qonunlarga itoatkor bo'ladi, hamisha unga bo'ysunadi va qonunlarga hurmat bilan qaraydi. Bunday insonlar qonunlarda belgilangan qoidalarga zid xatti-harakat qilmaydi, aksincha boshqalarni ham shunga da'vat etadi. Ijtimoiy-siyosiy faol fuqaro jamiyatda ro'y berayotgan voqea - hodisalarga ongli munosabatda bo'lib, islohotlarga daxldorligini sezib, davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatini his qilib yashaydi. Eng muhimi, u mamlakat taraqqiyotiga amaliy hissa qo'shishga harakat qiladi.

Jamiyatda huquqiy madaniyatning shakllanganligi yoshlarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni, maqsadlarni boshqarishdagi ishtiroki va mas'uliyati, yangiliklarga daxldorlik tuyg'usining o'zgarishi jamiyat, huquqiy davlat ravnaqi uchun qarorlar qabul qilish jarayonida ularning faollik darajasini belgilaydi.

Jamiyatda huquqiy ongni rivojlantirishda, huquqiy normalarni qabul qilishda huquqiy mafkura asosiy hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki huquqiy mafkura jamiyatdagi huquqiy mavjudligini, talabga javob berishini, huquqiy normalarning kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib mustahkamlashga va rivojlantirishga katta yordam beradi. Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarining jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi holati huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy madaniyatini, huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni talab qilmoqda. Huquqiy madaniyat huquqiy bilim, huquqiy e'tiqod va izchil amaliy faoliyat majmui sifatida jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlaydi. Huquqiy savodxonlikning belgilaridan biri bu –

huquqiy targ'ibotdir. Huquqiy targ'ibot va fuqarolarning huquqiy ongini oshirishning zamonaviy va ta'sirchan uslublarini joriy qilish, ularga qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ - huquqiy hujjatlar mazmun - mohiyati va ahamiyatini yetkazish, aholining huquqiy savodxonligini yaxshilash bo'yicha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Huquqiy ongni takomillashtirishning jamiyatda oilaning ahamiyati juda katta. Oilalar, insonlarning bir-biriga hurmat va muhabbat ko'rsatishining asosiy o'rinlaridan biridir. Oilaning vazifalari o'rtasida farzandlarni huquqiy tarbiyalash, ularning huquqlarini himoya qilish, ularga huquqiy ma'rifat berish kabi muhim vazifalar kiritiladi. Oilalar, farzandlarga huquqiy ma'lumotlarni o'rgatish, ularning huquqlarini tushuntirish va himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Huquqiy bilimlarni oila a'zolari o'rtasida almashish, o'quvchilarni huquqiy masalalarda mahalliy qonunlar va kelajakda ularning jamiyati bilan murojaat qilishlari uchun tayyorlash hamda huquqiy tartibni hurmat va adolat asosida o'rgatish muhimdir.

Oilaning huquqiy ongini takomillashtirish jamiyatda inson huquqlarini himoya qilish va huquqiy tartibni saqlashda muhimdir. Oilalar farzandlarga huquqiy masalalarda yordam bera oladilar va ularni huquqiy tarbiyalash orqali huquqiy bilimga ega bo'lishlarini ta'minlaydilar. Bundan tashqari, oilalar jamiyatning eng katta tarkibiy birliklaridan biri sifatida huquqiy tartibni saqlashda ham muhim rol o'ynaydi. Huquqiy ongni takomillashtirishning asosiy qismi oila tarbiyasiga asoslangan bo'lishi sababli, oilaning bu sohadagi vazifalarini bajarishi jamiyatning huquqiy ongini mustahkamlashtirishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 29.08.1997-yil 466-I son qarori bilan tasdiqlangan. Nrm.uz

2. Huquqiy yetuklik - barkamollikka eltadi. "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - T.: Adolat 2011, 7-b

3. Islomov. Z. M. Davlat va huquq nazariyasi. - T.: Adolat, 2007. - 537-b

4. Ю.А.Дмитриев. Правосознание и правовая культура / Теория государства и права. Под ред. Пиголкина. - Москва: Юрайт - Издат, 2006. - С. 547

5. U. Tajixanov, A. Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi 1-tom. - Toshkent. 1998, 11-b

6. Xudoyor Mamatov. "Huquqiy ong, huquqiy madaniyat davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilaydi". uza.uz